



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING 105 YILLIGIGA  
BAG'ISHLANGAN "ANALITIK KIMYONING DOLZARB  
MUAMMOLARI" MAVZUSIDAGI XALQARO PROFESSOR-  
O'QITUVCHILAR VA YOSH OLIMLAR ISHTIROKIDAGI  
RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ANJUMANI  
MATERIALLARI TO'PLAMI**



**2023 yil 11-12 may**

**Toshkent**

# OG'IR VA ZAHARLI METAL IONLARINI KOSMETIK VOSITALAR TARKIBIDAN INVERSION VOLTAMPEROMETRIK USULDA ANIQLASHNING AHAMIYATI

Sayfiyev M.H.<sup>1</sup>, Nazarova M.Q.<sup>2</sup>, Ziyayev D.A.<sup>3</sup>

<sup>1</sup>O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston, 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi  
4. E-mail: maqsudsayfiyev9@gmail.com

<sup>2</sup>O'zbekiston Milliy universiteti magistranti. O'zbekiston, 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi  
4. E-mail: nazarovamahsuda67@gmail.com

<sup>3</sup>O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, O'zbekiston, 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi 4.  
E-mail: dil\_analitik@mail.ru

## Annotatsiya

Kosmetika mavzusi juda dolzarb hisoblanadi, chunki har doim odamlar go'zallik va jozibadorlikni saqlashga harakat qilishadi. Ma'lumki, har qanday kosmetologiya mahsuloti turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan 50 dan ortiq ingredientlarni o'z ichiga olishi mumkin. Amaliyat shuni ko'rsatadiki, kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarishda ko'p jihatlarni hisobga olish kerak. Shu jumladan, kosmetik vositalar tarkibidagi og'ir va zaharli metallarni mavjud ekanligi achinarli holatdir. Tadqiqot ishimizda teri uchun uchun kremlar tarkibidan qo'rg'oshin va mis (II) ionlarini inversion voltamperometrik usulda aniqlashda turli tabiatli fon elektrolitlari, bufer aralashmalar, eritma pH muhiti va yondosh kationlarning ta'siri o'r ganildi. Olingan natijalarga asoslanib kosmetik vositalar tarkibidan qo'rg'oshin va mis (II) ionini aniqlashning inversion voltamperometrik usuli ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** mikroelement, kosmetik vositalar, qo'rg'oshin, mis (II), fon elektroliti, inversion voltamperometriya, yondosh kationlar, elektrokimyoviy sensor.

Kosmetika insoniyat sivilizatsiyasining boshlanishidan beri odamlar tomonidan ishlatilib kelingan. Dastlab, u odatta tabiiy mahsulotlardan iborat edi, ammo tezkor natijalarga erishish uchun ta'sirni tezlashtirish uchun og'ir metallar tez-tez kosmetikaga qo'shilib kelinmoqda. Turli xil kosmetika mahsulotlarida rux, qo'rg'oshin, kadmiy va mis kabi og'ir metallar aniqlanadi; ko'pincha rangli kosmetika, soch kosmetikasi, yuz-tana parvarishlash mahsulotlari va go'zallik kosmetikasi mahsulotlarida. Bu metallar zaharli metallar tarkibiga kiradi. Kosmetikani tananing turli qismlariga qo'llash metallarning shox parda orqali qonga singishiga olib keladi, turli xil biomolekulalarning muhim elementlarini to'playdi yoki almashtiradi, bu esa xavfli mexanizmni ishga tushiradi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi umumiy kosmetika mahsulotlarida zaharli metallar ruxsat etilgan chegaradan ko'proq ishlatiladi [1].

Deyarli har qanday mahsulotning tarkibi iste'molchilar tomonidan kamdan-kam o'qiladi. Insoniyatning yarmi ko'pincha sevimli lab bo'yog'i, kremlar yoki ko'z bo'yoqlari nimadan iboratligiga e'tibor bermaydi. Agar bizga brend, qadoqlash, ranglar yoqsa biz uni olamiz. Afsuski, kosmetik brendning nomi mashhurligi bilan birga har doim ham xavfsiz va foydali emas [2].

Yuqoridagi muammolarni xisobga olgan xolda qo'rg'oshin va mis (II) ionining miqdorini aniqlash va nazorat qilish uchun yuqori sezgirlikka ega, qulay, tanlab ta'sir etuvchanligi yuqori, bir namuna tarkibidan bir vaqtning o'zida bir necha ionlarni aniqlash imkoniga va tannarxi arzon bo'lgan usulni tanlab olish talab etiladi. Keltirilgan talablarga inversion voltamperometriya usuli to'liq javob beradi. Inversion voltamperometriya usuli bugungi kunda turli tabiiy ob'ektlar namunalari analizini amalga oshirishda keng qo'llanilmoqda, chunki ushbu usulning quyi aniqlash chegarasining yuqoriligi, bir vaqtning o'zida xam sifat xam miqdoriy tahlilni amalga oshirish imkonи borligi, tezkorligi va tannarxi arzonligi bilan boshqa usullardan afzalroq hisoblanadi, shu sababdan ham biz inversion voltamperometriya usulidan foydalandik [3].

Analiz natijalari grafit asosidagi elektrokimyoviy sensor, to'yingan kaliy xloridli solishtirma elektrod, hamda katta yuza sathiga ega yordamchi grafit elektrodidan tuzilgan elektrolizyor, kompyuter bilan ta'minlangan ABC-1.1 qurilmasi yordamida qayd qilindi.

Ish teri uchun krem namunalarini analizga tayyorlashdan boshlandi. Buning uchun teri uchun krem namunalaridan olinib, ular quritiladi va fon eritmasi ishtirokida filtrdan o'tkaziladi, hamda o'lchashlar amalga oshiriladi. Fon elektroliti sifatida bir qancha turli miqdor va tabiatga ega bo'lgan fon elektrolitlaridan foydalandik: 0,1-0,4 M KCl, KJ, CH<sub>3</sub>COONa·3H<sub>2</sub>O eritmalari. Fon elektrolit sifatida ishlatalayotgan ushbu eritmalar tegishli tuzlarni bidistillangan suvda eritish orqali va bufer eritmalarini analitik kimyo qo'llanmasidan foydalaniib tayyorlandi[4]. Olingan natijalar 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

### 1-jadval

**Qo'rg'oshin ionini Cu(II) ishtirokida birgalikda aniqlashda fon elektrolitining ta'siri  
(t.o.=2,5 mKA, t<sub>n</sub>= 90 s, C<sub>Pb</sub>= 0,3<sub>Pb</sub> mg / dm<sup>3</sup>, C<sub>Cu</sub>= 0,25 mg / dm<sup>3</sup>)**

Fon elektroliti tabiatи va konsentratsiyasi E <sub>1/2</sub>	Pb		Cu(II)	
	E <sub>1/2</sub> , mV	Id, mKA	Y <sub>em</sub> , mV	Id, mKA
0.1 M KCl	-400	3.1	-250	2.5
0,1 M KJ	-450	3.7	-400	2.7
0,5 M CH <sub>3</sub> COONa·3H <sub>2</sub> O	-470	4.0	-420	3.0

### 2-jadval

**Britton-Robinson buferining turli xil pH  
qiymatlarini qo'rg'oshin va mis(II) ionini analitik signaliga ta'siri  
(t.K.=2,5 mKA, t<sub>y</sub>= 90 s, C<sub>Pb</sub>= 0,3 mg / dm<sup>3</sup>, C<sub>Cu</sub>= 0,25 mg / dm<sup>3</sup>)**

Topildi Pb, Cu(II) (P=0,95; n=3)			
pH	3,55	4,49	4,89
Id, mm (Pb)	6	7	6,5
Id, mm (Cu)	7	8,7	8,5

Olingan natijalardan ko'rinish turibdiki, qo'rg'oshin va mis(II) ionini aniqlashda eng maqbul fon elektroliti 0,5 M CH<sub>3</sub>COONa·3H<sub>2</sub>O hamda pH=4,49 ekan. Biz keyingi ishlarimizda aynan shu pH=4,49 sharoitda 0,5 M CH<sub>3</sub>COONa·3H<sub>2</sub>O fon elektrolitidan foydalandik.

### ADABIYOTLAR

1. Syed Ali Raza-Naqvi., Fareeha Idrees., Tauqir A. Sherazi., Sohail Anjum-Shahzad., Sadaf Ul-Hassan., Nimra Ashraf. Toxicology of heavy metals used in cosmetics. J.Chil. Chem. Soc.vol.67 no.3 Concepcion set. 2022
2. София Неклеса. Источники, использованные при написании статьи: seriousbeauty.ru. Босса B., Pino A., Alimonti A., Forte G. Toxic metals contained in cosmetics: a status report. Regul Toxicol Pharmacol. 2014 Apr; 68(3):447-467
3. А.А.Каплин., Н.А.Вейц., Н.М.Мордвинова., Г.Г.Глухов. Журн. аналит. химии. – Москва, 1977.- Т.32.- №4. - С.687-692
4. Ю.Ю.Люре. Справочник по аналитической химии – Москва “Химия”-1989 г. С.446.
5. Т.К.Атанасян., В.С.Коничев., С.А.Муравьева. Вестник московского государственного областного университета. серия: естественные науки №3 2017 г. С.42-50

Ахмаджонов У.Г., Набиев А.А., З.А.Сманова РАЗРАБОТКА СОРБЦИОННО-СПЕКТРОФОТОМЕТРИЧЕСКОГО МЕТОДА ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИОНОВ ХРОМА	
72 У.Г.Ахмаджонов, А.А.Набиев, М.Ж.Тураева, Т.И.Алиева, Д.А.Зияев ИЗУЧЕНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОГО СЕНСОРА	121
73 Гулбаев Яхшилик Ирсалиевич , Холмуминова Диором Анваровна АНАЛИТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДА РЕАКЦИОННОЙ ГАЗОВОЙ ЭКСТРАКЦИИ	123
74 Бобожонов Х.Ш., Усманова Х.У., Сманова З.А. АЛЮМИНИЙ, ГАЛЛИЙ, ИНДИЙ ВА ҚАЛАЙ ИОНЛАРИНИ ЛЮМИНЕЦЕНТ УСУЛДА АНИҚЛАШДА ҚҮЛЛАНИЛАДИГАН ПОЛИОКСИФЛАВОНЛАР ВА ОКСИАЗО БИРИКМАЛАРНИ ИММОБИЛЛАШНИНГ КИМЁВИЙ-АНАЛИТИКХ ОССАЛАРИНИ	124
75 Т.Исаев , З.О.Тўхтасинова ВАЛЕРИАНА ИЛДИЗИ ТАРКИБИДАГИ МИКРО- ВА МАКРОЭЛЕМЕНТЛАРНИ ОПТИК ЭМИССИОН СПЕКТРОМЕТРИЯ УСУЛИДА АНИҚЛАШ	126
76 Boqiyev Q.S., Sayfiyev M.N., Ziyayev D. TUPROQ TARKIBIDAGI UMUMIY AZOT MIQDORINI KELDAL APPARATI YORDAMIDA TITRIMETRIK USULDA ANIQLASH	127
77 Allambergenova F.R., Qutlimurotova N.H., Smanova Z.A. VANADIY (V) IONINI IMMOBILANGAN REAGENTLAR YORDAMIDA ANIQLASH USULLARI	130
78 Sayfiyev M.H., Nazarova M.Q, Ziyayev D.A. OG'IR VA ZAHARLI METAL IONLARINI KOSMETIK VOSITALAR TARKIBIDAN INVERSION VOLTAMPEROMETRIK USULDA ANIQLASHNING AHAMIYATI	131
79 Турабов Н.Т., Хусанов Б.М., Тошхўжаев М.А., Тулиев Б.А НИКЕЛЬ(II) ИОНЛАРИНИНГ КОМПЛЕКС ҲОСИЛ ҚИЛИШ РЕАКЦИЯСИННИГ ОПТИМАЛ ШАРОИЛЛАРИНИ АНИҚЛАШ	133
80 Саматов Санжар Мадатович УНИВЕРСАЛЬНЫЙ ПУТЬ К СИНТЕЗУ КЛЕЕВ, ЧУВСТВИТЕЛЬНЫХ К ДАВЛЕНИЮ, И ПОЛИНIRE-ПОДОБНЫХ МИКРОЧАСТИЦ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВАЛОРИЗАЦИИ ГЛИЦЕРИНА	135
81 Гулбаев Яхшилик Ирсалиевич , Холмуминова Диором Анваровна ГАЗОВАЯ ЭКСТРАКЦИЯ В ХРОМАТОГРАФИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ: НОВЫЕ МЕТОДЫ И НОВЫЕ ОБЛАСТИ ПРИМЕНЕНИЯ	137
82 Фофуров Абдушукур Абдужалол уғли, Атакулов С.А., Қаюмов Ж.М. СОРБЦИОННО-СПЕКТРОМЕТРИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИОНОВ ЖЕЛЕЗА	138
83 Каримова Д.Б ПАРАБЕНЛАРНИ ЮССХ УСУЛИДА АНИҚЛАШ	139
84 Жумабаев Ф.Р., Хайруллаев Д.Х., Шарипов А.Т .ИК-СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СУБСТАНЦИИ ТИОЦИНА	141
85 Рустамов Э.М., Рахимов С.Б., Зияев А.Л., Мамажанов М. М.ОПРЕДЕЛЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ТЯЖЁЛЫХ МЕТАЛЛОВ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ НАПИТКАХ	142

## 2-SEKSIYA

### NOORGANIK, ORGANIK, POLIMER VA TABIYU BIRIKMALAR ANALIZI

86 Абдисатторов Ж.А., Бердимуродов Э.Т., Акбаров Х.И. ИОННЫЕ ЖИДКОСТИ КАК ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ОБЪЕКТЫ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ	144
87 Бўриева Д.М., Абдушукуров А.К., Нурматов Д.Ў. ПИКОЛИН КИСЛОТАСИННИНГ 2,4-ДИХЛОРАНИЛИН БИЛАН АМИД ОЛИШ РЕАКЦИЯСИ	146
88 Aliyeva M.Z., Nabieva N., Nuraliyeva G.A. $[Cd_2(L)_3(NO_3)_3 \cdot 2H_2O](NO_3)_2$	147